

G'AFUR G'ULOM NASRIDA TASVIR VA IFODA VOSITALARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Muratova Gulbaxar Choriyevna,

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada G'afur G'ulom nasrida qo'llangan badiiy tasvir va ifoda vositalarining poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot obyektini sifatida adibning «Shum bola» va «Netay» qissalari tanlanib, ulardagi portret, peyzaj va ramziy tasvirlarning badiiy vazifasi o'rganildi. Tahlil jarayonida mazkur vositalarning qahramon xarakteri, ruhiy holati hamda ijtimoiy muhitni yoritishdagi o'rni aniqlandi. Natijalar G'afur G'ulom nasrida tasvir va ifoda vositalari asarning g'oyaviy-estetik mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: nasr, poetika, badiiy tasvir, portret, peyzaj, ramziylik, xarakter.

Аннотация. В данной статье анализируются поэтические особенности художественных средств изображения и выражения, использованных в прозе Гафура Гуляма. В качестве объекта исследования выбраны повести писателя «Шум бола» и «Нетай», в которых изучается художественная функция портретных, пейзажных и символических описаний. В процессе анализа определено их значение в раскрытии характера персонажей, их психологического состояния, а также в изображении социальной среды. Результаты исследования показывают, что средства изображения и выражения в прозе Гафура Гуляма играют важную роль в раскрытии идейно-эстетического содержания произведений.

Ключевые слова: проза, поэтика, художественное изображение, портрет, пейзаж, символика, характер.

Abstract. This article analyzes the poetic features of artistic imagery and expressive devices used in the prose of Gafur Gulom. The study focuses on the writer's stories "Shum bola" and "Netay", examining the artistic function of portrait, landscape, and symbolic descriptions within them. The analysis identifies their role in revealing characters' personalities, psychological states, and the social environment. The results show that imagery and expressive devices in Gafur Gulom's prose play an important role in revealing the ideological and aesthetic content of his works.

Keywords: prose, poetics, artistic imagery, portrait, landscape, symbolism, character.

Kirish. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida G'afur G'ulomning ijodi muhim o'rin tutadi. Adib o'z asarlarida inson taqdiri, ijtimoiy muhit va davr muammolarini badiiy jihatdan teran aks ettirgan. Uning nasriy asarlarida voqelikni tasvirlash, inson ruhiyatini ochish va xarakter yaratishda turli poetik vositalardan samarali foydalanilgan.

Badiiy asarning ta'sirchanligi ko'p jihatdan yozuvchining tasvir va ifoda vositalaridan qanday foydalanishi bilan belgilanadi. Portret, peyzaj, ramziy tasvir, lirik chekinish kabi poetik unsurlar asar mazmunini chuqurlashtirib, qahramonlarning ichki dunyosini yoritishga xizmat qiladi.

G'afur G'ulom ijodi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, uning nasridagi tasvir va ifoda vositalarining poetik funksiyasi alohida tadqiq etilishga muhtoj. Shu bois mazkur maqolada adib nasridagi badiiy tasvir vositalarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Gʻafur Gʻulomning «Shum bola» va «Netay» qissalaridagi portret, peyzaj va ramziy tasvirlarning badiiy vazifasini aniqlash hamda ularning asar gʻoyasini ochishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Gʻafur Gʻulom nasridagi tasvir va ifoda vositalari qahramon ruhiyati, ijtimoiy muhit va muallif konsepsiyasi bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qilindi. Portret va peyzaj tasvirlarining ramziy mazmun kasb etishi hamda asar gʻoyasini shakllantirishdagi oʻrni yangi talqinlarda yoritildi.

Adabiyotlar tahlili. Gʻafur Gʻulom ijodi oʻzbek adabiyotshunosligida keng oʻrganilgan boʻlib, uning nasriy asarlarida badiiy tasvir va ifoda vositalari muhim oʻrin tutadi. Adibning “Shum bola” va “Netay” qissalari asosiy manba sifatida koʻplab tadqiqotlarda tahlil qilingan.

Gʻ. Gʻulom asarlarida portret, peyzaj va ramziy tasvirlar orqali qahramon xarakteri hamda ijtimoiy muhitni ochish masalasi adabiyotshunoslar tomonidan qisman yoritilgan. Hotamov va Sarimsoqovning (1983) lugʻati esa nazariy tushunchalarni aniqlashtirishda muhim asos boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Matyakubova, Yakubov va boshqa tadqiqotchilar ishlarida adib ijodining poetik xususiyatlari, obraz yaratish mahorati va badiiy ifoda usullari oʻrganilgan. Biroq Gʻafur Gʻulom nasrida tasvir va ifoda vositalarining yaxlit poetik tizim sifatidagi tahlili hali ham chuqurroq ilmiy yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, germenevtik tahlil, matn tahlili va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot manbasini Gʻafur Gʻulomning «Shum bola» va «Netay» qissalari tashkil etadi. Asarlardagi portret, peyzaj va ramziy tasvirlar tahlil qilinib, ularning badiiy-estetik vazifalari aniqlandi. Shuningdek, ayrim holatlarda A.Qodiriy ijodi bilan qiyosiy yondashuv qoʻllanildi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Gʻafur Gʻulom portret tasviridan qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki olamini ochish vositasi sifatida foydalanadi. “Shum bola” qissasidagi hast eshon portreti bunga yaqqol misol boʻla oladi. Qahramonning tashqi koʻrinishi nuroniy inson sifatida tasvirlangan boʻlsa-da, muallif kinoya orqali uning ichki dunyosidagi soxtalikni fosh etadi. Demak, portret qahramon xarakteriga baho berishda muhim poetik vazifa bajaradi.

“Netay” qissasidagi kampir obrazining tashqi qiyofasi ham uning maʼnaviy qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Muallif tashqi belgilar orqali personajning axloqiy mohiyati haqida kitobxonda muayyan tasavvur uygʻotadi. Peyzaj tasvirlari ham adib nasrida muhim estetik vazifani bajaradi. Muallif kun botish oldidagi tasvirni shunday chizadi: *“shafaq qizilligi bilan motamzada koʻkda parcha-parcha bulutlar harakatsiz toʻxtab turardi”*. [1.25] Asardagi «shafaq qizilligi», «motamzada koʻk», «harakatsiz bulutlar» kabi tasvirlar ijtimoiy muhitning murakkab holatini ifoda etuvchi ramzlarga aylangan. Bu tasvir muayyan darajada Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romanida xunuklikning tipik vakili

sifatida ta'riflanadigan Jannat kampir portretiga monanddir. Romanda Jannat kampir portreti shunday chiziladi: «.. yerdan bichib olgandek pak-pakana, burni yuzi bilan baravar deyarli tep-tekis, ko'zi qoqqan qoziq o'rnidek chup-chuqur, og'zi qulog'i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og'riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi».[2] Har ikki tasvir ham bizda xunuklik haqida muayyan tasavvurlar uyg'otadi, qahramonning ma'naviy tubanligini anglashimizga yordam beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, G'afur G'ulom tasvir vositalarini mustaqil estetik unsur sifatida emas, balki asar g'oyasiga bo'ysundirilgan holda qo'llaydi. Olingan natijalar G'afur G'ulom nasrida poetik tafakkurning yuqori darajada namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Adib qahramonlarning tashqi qiyofasini tasvirlash bilan cheklanmay, ularning ruhiy holatini ham badiiy detallar orqali yoritadi. Portret va peyzaj tasvirlarining o'zaro uyg'un holda keltirilishi asarlardagi badiiy yaxlitlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, «Netay» qissasida madrasa muhiti, tolibi ilmlar hayoti va kuz manzaralarining yonma-yon tasvirlanishi muayyan ijtimoiy tanqid ruhini shakllantiradi. *Turkistonning turli shaharlaridan ilm izlab, o'n yillar shu madrasa tuprog'ini yalagan ko'p kishilar, bir munosib mahallaga imom bo'lganlar oxirida*".[1.26] Keltirilgan ko'chiradagi kelajak va ahli ilmlar so'zlari qo'shtirnoq ichida berilgan bo'lib, bu so'zlar mohiyatida kinoyaviy ohang mujassamlashgan. Mazkur fikrlar mazmunini anglash uchun o'sha davr sharoiti bilan yaqindan tanish bo'lmoq lozim.

Ramziy tasvirlar orqali muallif davr muammolarini bevosita emas, balki badiiy ishoralar vositasida ifoda etadi. Bu esa asarning estetik ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, G'afur G'ulom nasrida tasvir va ifoda vositalari nafaqat badiiy bezak vazifasini, balki muhim g'oyaviy-estetik funksiyani ham bajaradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, G'afur G'ulom nasrida portret, peyzaj va ramziy tasvirlar badiiy tuzilmaning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Adib mazkur vositalar orqali: qahramon xarakterini ochadi; inson ruhiyatini tasvirlaydi; ijtimoiy muhit xususiyatlarini ifodalaydi; asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. Shu bois G'afur G'ulom nasrida tasvir va ifoda vositalarini o'rganish adib poetikasi hamda XX asr o'zbek nasri taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. Т.5.. – Т.: Фан, 1986. – Б. 25
2. Қодирий А. Ўткан кунлар. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – Б. 171
3. Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. 5-жилд. – Тошкент: Фан, 1986.
4. Matyakubova T. Lyric Experience in Gafur Gulam's Poetry // Pindus Journal of Culture, Literature and ELT. – 2021. – Vol. 2. – Issue 1. – P. 15–18.
5. Matyakubova T.R. A Mastery of Affecting a Student with a Lyric Feeling // International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). – 2021. – Vol. 5. – Issue 4. – P. 290–292.
6. Yakubov I. Experimental Research in the Creation of a "Mini-Novel" // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Vol. 11. – Issue 11. – P. 143–147.